



ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDA VALOYAT TALQINI

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

Xalqaro innovatsion universitet o'qituvchisi



INTERPRETATION OF VALOYAT IN ALISHER NAVAI'S WORK “NASOYIM UL-MUHABBAT”

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

Teacher at the International Innovative University

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СЛОВА ВАЛОЯТ В
“НАСАИМ УЛ-МУХАББАТ” АЛИШЕРА
НАВАИ**

Ортикова Мавлюда Нурмахаммедовна

*Преподаватель Международного инновационного
университета*



E-mail: m.ortiqova93@mail.ru

Orcid: 0009-0001-7149-0989

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15461548>

Annotatsiya: *A.Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida valoyat sohibi bo'lgan valiyilar qanday sifatlariga ega bo'lishi, xususan, tavba, sidq, rizo, shariat rioyati, tariqat odobi, sabr, hilm, burdbog'liq, luqmai hilliyat, azim riyozati kabi xususiyatlar valiyilarni boshqa insonlardan ajratib turadigan va bu xususiyatlarni hammasini o'zida jam qilish, o'z nafsi ustidan g'olib bo'lgan kishilargagina munosib bo'lishi hikoyatlarda o'z ifodasini topgan. Asarda keltirilgan avliyolarda esa qaysidir xususiyat yetakchilik qilgan. Valiyilar obrazini sifatlariga ko'ra tasniflash, darajalash holatlarida Xoja Abdulloh Ansoriy “Shayx ul- islom” sifatida har bir holatga munosabat bildiruvchi pir timsolida namoyon bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Valiy, tavba, sidq, rizo, shariat rioyati, tariqat odobi.*

Аннотация: *В произведении А.Навои “Насаим ул-Мухаббат” какими качествами обладают опекуны, в частности, покаяние, сидк, согласие, соблюдение шариата, религиозный этикет, терпение, хильм, бурдбаглик, луқмаи хилият, азим риязати, которые отличают опекунов от других людей, а также сочетание всех этих характеристик, победа над своим эго, которая подходит только ему. для людей выражается в историях. Святые, упомянутые в произведении, руководствовались какой-то характеристикой. В случаях классификации и ранжирования образа хранителей по качествам Ходжа Абдулла Ансари предстает как “шейх уль-ислам” в образе тира, реагирующего на любую ситуацию.*

Ключевые слова: *вали, тауба, сидк, реза, соблюдение шариата, этикет тариката.*

Annotation: *In Alisher Navoi's work “Nasoyim ul-muhabbat”, the qualities of saints who possess spiritual authority are depicted, emphasizing attributes such as repentance, sincerity, contentment, adherence to Sharia law, observance of Sufi conduct, patience, forbearance, modesty, lawful sustenance, and rigorous asceticism. These qualities distinguish saints from other individuals, and the ability to embody all of these traits is said to be reserved for those who have conquered their own egos. In the narratives, certain saints exhibit leadership through specific traits. When classifying and ranking the characteristics of saints, Khwaja Abdullah Ansari, referred to as “Shaykh ul-Islam”, appears as a guiding spiritual figure who offers commentary on each state.*

Keywords: *Saint, repentance, sincerity, contentment, adherence to Sharia, Sufi conduct.*



Kirish. Qaysidir masala haqida so‘z yuritganimizda albatta, uni birlamchi manbalariga yuzlanamiz. Valoyat haqida so‘z borganida esa eng mumtoz va mukammal manbalardan biri bo‘lgan A.Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asariga murojaat qilsak bo‘ladi. Sababi, ushbu nodir tazkira avvalambor Hazrat Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns”, Shayx Farididdin Attorning “Tazkirat ul- avliyo”dek asarlari g‘oyalari bilan sug‘orilgan bo‘lib, Alisher Navoiy o‘zidan oldingi avliyolar, shayx va so‘fiylar to‘g‘risida yozilgan asarlarda zamon va makon taqozosidan bayoni berilmagan mashoyxlarni o‘ziga xos sifatlar bilan hikoyatlar orqali tasvirlab beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning obyektivlik, tarixiylik va umumiylik usulidan foydalanildi. Shuningdek, A.Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida valiy obrazi, valiylarga xos sifatlar, valoyat tushunchasi tizimli yondashuv va tasniflash asosida tahlil qilindi. Abdurahmon Jomiyning “Nafohat ul-uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarlari va boshqa adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan mualliflarning ilmiy-nazariy qarashlari ilgari surilgan ilmiy maqolalar metodologik manba bo‘lib belgilandi.

Natijalar va muhokama. A.Navoiyning “Nasoyim ul- muhabbat” tazkirasida avliyolarning karomatlari martabalaridek ko‘p ekanligi aytiladi. Yo‘qlik ijodi va borlikni yo‘q qilish, mahfiy amr va zohir amr istagi, duosi ijobati, kam fursatda uzoq masofani bosib o‘tish, aqldan g‘oyib ishlardan xabardor bo‘lmoq va undan ogoh bo‘lmoq. Bir muddatda turli makonda hozir bo‘lish, o‘likni tiriltirish, tiriklarni jonsizlantirish, jonsiz tabiat va o‘simliklar dunyosi, hayvanot olamini tinglash va ma’nolaridan voqif bo‘lish, g‘oyibdan taom va ichimlik kelmoq, suv ustida yurmoq, havoda sayr qilmoq, nimaniki yemoq bo‘lsa odatan taom bo‘lmagay (ya’ni oldindan ga‘mlanmaydigan) havvonlarni qo‘lga o‘rgatish, zabt etish, badanda haddan tashqari quvvatning bo‘lishi, daraxtni tubidan sug‘orib olmoq, tinglash vaqtida devorni barmoq bilan yorish, qo‘l ishorasi bilan muxolifning boshini uchirmoq va daryolarda g‘arq bo‘ladigan kemani qirg‘oqqa chiqarib, olamning turli xil asl moddalarini tasarruf qilish, nimani istasa qilmoq, yong‘ir yog‘dirmoq, shamol estirmoq yoki uni daf qilmoq, chuvurtka ofatini daf qilmoq, har xil sur’atda shaklini o‘zgartirmoq, dasht-u biyobonlarda sarson va ovvora bo‘lganlarga rahnamoliq qilmoq ularning karomatlariga dohil ishlardir. Ko‘rib turganimizdek, valiylarning karomati oddiy insonlarga tushunilishi qiyin, hayratlanarli holat bo‘lib tuyuladi. Bu karomatlar nima uchun aynan avliyolarga beriladi? Aqid va tasavvufga oid manbalarda karomatlar tabiiy va kasbiy turlarga bo‘linadi. Tabiiy karomat Alloh o‘zi sevgan bandalariga odatdan tashqari ishlarning xayrlisini berishi deb tushunsak, karomati kasbiy



taqvodor bandalarning taqvosi va sifatlari bilan Allohning inoyatiga sazovor bo'lishidir. Endi Allohning taqvodor bandasi, uning karomatiga sazovor bo'ladigan bandasi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerakligi bo'yicha hazrat Navoiyning tavsiflarini ko'rib chiqsak.

A.Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarning maqom manzillarini "Bu toifaning a'molu af'ol va muomilotu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq" qismida quyidagicha keltiradi: "Bularning avval ishlari tavbadurkim, Haq s. t. barcha manhiy ishlardan alarg'a ijtinob karomat qilg'ay". [Navoiy A, 2012: 93] Valiylarga xos sifatlarning avvali tavba bo'lib, tavba barcha yomon ishlardan saqlanish va ogoh bo'lishdir. Asarda keltirilgan valiylardan biri Habib Ajamiy bo'lib, u tavba qilib haqni taniydi. Tavba bilan Allohning karomatiga sazovar do'stlaridan biriga aylanadi. "U qubbai ibrat valiyisi, pardai vahdat so'fisi, baxt va davlat, sidq va karomat sohibi, aniq sirlarning shak-shubhasiz mahrami, rabb ul-olamining xilvat saroyiga yuzlanuvchi, faqr va adamning nishonsiz bandasi, riyozat va mujohadotda benazir, avval holda boy va moldor, sudxo'r edi, foyda so'rar, agar qarzdorlari foydani topib bera olmasalar, ulardan yo'lkira haqqini ham undirar edi. Uni ajal quvvati deb atar edilar" [Attor F, 2023: 79] Avval sudxo'r va boy bo'lib, odamlarga qarz berib, foydasini olgan kishi, hatto yo'l haqqi pulini olgan odam qanday qilib Allohning valiysiga aylanadi? A.Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida ham Farididdun Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida ham keltirilgan hikoyatda Habib Ajamiyga bir faqir tilanchi "Shay'an lilloh" deganida uning baxilligi tutib taom kamligini aytib haydab yuboradi. Bu voqeadan keyin esa qozonda pishib turgan taom qonga aylanib qolganini ko'radi. Habib Ajamiy esa, bu holdan qo'rqib barcha tuban ishlariga pushaymon bo'lib, o'ziga berilgan ogohlantirishni vaqtida anglab, gunohlariga tavba qiladi. "Tazkirat ul-avliyo"da yana shunday keltiriladiki, "O'shanda juma kuni edi, ko'chada yosh bolalar o'ynar edilar. Ular Habibni ko'rib, dedilar: — Ey do'stlar, qochinglar, bu sudxo'rdan uzoq bo'linglar. Uning oyog'ining changi bizga yetmasin, toki biz ham badbaxt bo'lib qolmaylik! Habibga bu bolalarning so'zi juda kuchli ta'sir qildi va jonidan o'tdi. Ulardan o'tib, Hasan Basriyning majlisiga bordi va tinglovchi bo'lib o'tirdi. Voizning va'z aytgani yana qattiq asar qildi. Behush bo'lib yiqildi. Bir ozdan so'ng o'ziga kelib, shu yerda barcha yomon qilmishlariga tavba qildi". [Attor F, 2023: 80] Shundan so'ng Habib Ajamiy ilm olib, qolgan umrini ibodatga bag'ishlaydi va o'z nafsidan ozod bo'ladi. U Firot daryosi qirg'og'iga ibodatgoh qurib, riyozat va ibodatga sho'ng'ib shu yerda kechalari tong otguncha tavba qilib toatda qoim bo'ladi. Uning tavba, taqvo bilan valiy bo'lganiga esa quyidagilar asos qilib keltiriladi: "Bir necha muddatdan so'ng xotini ro'zgorda



qiynalib qoldi va undan narsalar so‘radi. Habib ibodatgohiga kirib ibodatga mashg‘ul bo‘ldi. Va bir kecha uyiga bordi.

Xotini dedi: — Qani, narsa keltirganingiz?

Xabib dedi: — Men xizmatini qilayotgan zot o‘ta karamlidir. Uning karamidan men biron narsa so‘rashga uyaldim. Agar uning inoyati bo‘lsa, O‘zi narsa yetkazur! Ibodatgohiga kirib, tafakkurga mashg‘ul bo‘ldi. Alloh g‘ayb olamidan uning uchun bir xarvor un va bir qo‘y va bir mesh kob yog‘ va bir hamyon qizil tillo ato qildi.

Ilhom keldikim: — Agar sen toatingni orttirsang, men ham ne‘matni ziyoda qilaveraman!” SHu sababdanki, karomat ko‘p riyozatdan va ilm tafakkurdan paydo bo‘ladi. [Attor F, 2023: 80] Tavba sifati deyarli barcha valiylarda dastlabki darajada namoyon bo‘ladi. Tavbai Nususuf tufayli Ataba Bin G‘ulom ham tangri yo‘liga kiradi, u bir ayolning ko‘zlariga oshiq bo‘lib qarab turadi va bundan xabar topgan ayol ko‘zlarini o‘yib unga beradi. Oshiq bundan qattiq iztirobga tushib tavba qiladi. Utba ham tavba qilib Hasan Basriyga shogird bo‘lib, ilm oldi bundan keyin faqat Alloh ishqi uchun oshiq bo‘ldi. Ayni shu haqda “Tazkirat ul-avliyo”da ham keltiriladi: “Haq jamoli uchun kuygan, visol uchun qayg‘urgan, vafo ummoni, safo koni, xojai imom, tamoman mard inson Utba jami ko‘ngil sohiblarining maqbuli, jami tillarning ta‘rif etgani edi. Va uning ajoyib ishlari bor edi” [Attor F, 2023: 89] valoyatga erishgani haqida ham rivoyat keltirilgan bo‘lib, Utbaga karomat ko‘rsatishini so‘radi va u nima istashligini so‘raganlarida xurmo dedilar. Utba qish faslida qo‘llariga bir savat xurmo tutqazganligi aytiladi. Yuqoridagi hikoyatlarda tavba sifati haqni tanishdagi dastlabki yo‘l sifatida, valiylarni badiiy obraz sifatida berilishi esa nazariy bilimlarni dalillar bilan asoslangani kabidir. Asarda Hakim -at Termiziy valiylar haqida banda mukammal taqvosini bilan valoyatga erishadi aqidasi uchun urg‘u beradiki, Navoiy taqvonini tavba bilan boshlanishiga ishora qilmoqda. Keyingi sifatni esa luqmai hilliyat deb belgilaydi. Halol rizq halol kasb bilan kelishi, bu esa valiy uchun muhim bosqich ekanligi bilan izohlanadi. “Kosib Allohning sevgan bandasidir” [Navoiy A, 2012: 93] kabi keltiriladi. Shu o‘rinda esa mashoyixlar Shayx Abu Said Xarrozni “Qamar-us so‘fiya” deb ulug‘lashini e‘tirof etadi. Xarrozni asl kasbi etikdo‘z bo‘lib uning shunday so‘zlari bor: “Qalbni Alloh taolodan boshqa narsaga iltifotdan saqlash Allohu taolaga yuzlanish alomatlaridandur”, Bag‘dod diyorida halol kasb qilish barobarida ko‘plab kitob tasnif qilgani va fanlardan xabardor bo‘lgani, tajarrud va uzlatda bebaho bo‘lgani, unga ergashuvchilar ko‘p bo‘lgani va unga ergashuvchilarni “Xarrozniylar” deb atalgani, tasavvuf ilmining bilimdoni bo‘lgani F.Attorning “Tazkirat ul avliyo” asarida ham aytiladi. “Nasoyim ul- muhabbat”da Abu hafz Haddod temirchilik bilan, Shayx Muhammad Sakkok pichoqchilik bilan



shug‘ullangani keltirilgan. Avliyolikning qutb va g‘avs darajasiga erishgan Shayx Abul Abbos Omiliy qassoblik qilib kun kechirgan. Uning balchiqdagi tuyani Allohga duo qilib chiqarib olgani, karomat sohibi ekaniga dalil. Ya’ni, valiylik qanchalik karomatga ega bo‘lmasin manmanlikdan yiroq bo‘lgan. Avom xalq orasida halol kasb-korini qilib tirikchilik qilgan. Amirchai Safolfurush sopolchi-dukondor bo‘lib, uning ham valiylikka dahldor karomatlari keltirilgan. Chayonga ozor bermagan valiy sifatida e’tirof etiladi. Shu o‘rinda, Abdulla Ansoriy otasi ham jonivorlarga zarar bermasligi va bu xususiyat ayni abdollariga xos fazilat ekanligini aytadi. Bir lahzada yamanga, janozaga borib kelgan valiy sifatida ham e’tirof etiladiki, bu ayni valiylikning karomatlariga to‘g‘ri keladigan sifat. Har kunlik ishi esa, sopol sotuvchi dukondor bo‘lgan. Valiylikka xos yana bir sifat –zakot. Junayd Bag‘dodiyning shogirdi misrlik, faqih va voiz bo‘lgan Abu Bakr Shibliy zakotni shunday ifodalaydi: “Shayx Abubakr Shibliy q.s din bir faqih so‘raddiki, zakot adosi ne navdur ? Shayx debdurki, sanga farz bo‘ladigan farzni aytaymi manga farz bo‘lur zakotnimu deyin? Aytibdurlarki, manga bo‘lur zakot qaysidur va sanga bo‘lur zakot qaysidur? Shayx debdurki, sanga bo‘lur zakot uldurkim, har ikki yuz diramdin besh diram Tengri yo‘lida bergaysan. Manga bo‘lur zakot budurkim, har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram Tengri taolo yo‘lida bergaymen. Debdurkikim, ikki yuz diramkim berildi, yana besh diram nedur? Shayx debdurki, ul besh diramni burj qilib, ul ikki yuz diram bergan shukronag‘a berilg‘ay. Va bu Abubakr Siddiq mazhabidur, raziyallohu anhu”. [Navoiy A, 2012: 94] Abu bakr Siddiq mahzabining talablaridan, faqihlar uchun har ikki yuz diramdin besh diram, valiylik uchun har ikki yuz diramdin ikki yuz besh diram dedilar. Ikki yuz besh bo‘lishi zakot adosi uchun shukronalik an‘anasida dedilar. Navoiy “Nasoyim ul- muhabbat” asarida Abu Bakr Shibliy q.s ni Allohga benihoya muhabbatli, kuchi fahm va o‘z o‘limidan bir kun oldin bir solih kishini g‘assolikka yollab ketgan valiy sifatida e’tirof etgan. Junayd Bag‘dodiyning Abubakr Shibliy q.s ni Allohning do‘stlaridan biri ekaniga ishora qiluvchi shunday fikrlari bor: “Abubakr Shibliyg‘a boshqalarga nazar qilganingizdek. nazar qilmang. Chunki u Alloh ko‘zlaridan bir ko‘zdir”, “har bir qavmning toji bor. Bu qavmning toji esa Shibliydir” deb ulug‘laydi. Zakotni eng muhim sifat bilgan valiyning boshqa sifatleri ham ayni avliyolarga xos ekanligini ko‘rib turibmiz. Keyingi fazilat tariqat odobi, bu sifat katta-yu kichikka, yaxshi-yomonga, farzandlarga, xodimlarga, qullarga, hatto o‘g‘rilarga ham xushunat bilan emas, chuchuk til va yumshoq nasihat bilan muomalada bo‘lishlik deb ta’rif beriladi. Hazrat Abulvafoyi Xorazmiy q.r bilan bir o‘g‘ri hikoyasi berilgan. Hikoyada hazrat mutolaa qilib turgan chog‘da bir o‘g‘ri uni sallasini ilib olmoqda edi. Shu payt buni sezgan shayx ovvora bo‘lib joningni



qiyname, u eski va yirtiq dedi. O'g'ri o'z bilganidan qolmay tortishda davom etti. Hazrat esa uni takror ogohlantirdi. Ammo o'g'riga kor qilmadi. Oradan vaqt o'tib o'g'ri sallani ochib ko'rgach, rostan ham yirtiq va eski ekanini ko'rdi va tashlab ketdi. O'g'ri tashlab ketgan sallani hazrat borib oldilar va yana boshlariga kiyib oldilar. Bunda Abulvafoyi Xorazmiy q.r ni xokisor, ya'ni o'g'ri olmagan yaroqsiz eski sallaga qanoat qilib o'zini kamtar tutgan, o'g'ri kerak deb bilsa berib yuborishga rozi bo'lgan sahiy timsolida ko'ramiz. Navoiy bu hikoyani berish barobarida valiy obrazini yana bir sifatini, tariqat odobidagi go'zal namunani namoyon qilib beradi. Yoki Xoja Abu Nasr Porsoning otini o'g'irlash hikoyasida o'g'ri topilsa ham (o'zi emas boshqalar tomonidan izlanadi), o'g'rini jazolashni o'rniga otni qayta berib yuborish va uni jazolamaslik yo'llarini axtargan holatda otni o'zi bilan olib ketishini so'rab o'g'rini jazodan saqlab qolganida ham tariqat odobi ifodalanadi.

Yana bir sifat rizodir. "Nasoyim ul- muhabbat"da har ne haqdin kelsa har kim sabab bo'lsa sabablarning sababchisi bo'lgan yaratuvchidan deb bilish, tiliga ham, diliga ham Alloh roziligidan boshqa narsa kelmaslikni rizo sifati deb beriladi. Bu xususda ham hikoyat keltiriladiki, rizosi mukammal bo'lgan bir aziz kishining yolg'iz bir o'g'li bo'lib, u nihoyatda husni xulqi kamol topgan edi. O'g'li bemor bo'ldi va bir necha kundan so'ng vafot etdi. Butun xalq qayg'urib motam tutdi. Ammo otaning na kiyimida, na holida o'zgarish bo'lmadi. Motam tutib yig'layotganlarga esa haqning rizosi ekanligini uqtirar edi. Qabrga ham shariat talabi bilan o'zi qo'yib chiqdi va mag'firat qiluvchiga duo o'qib dediki: "Allohim, hukmingga bizni rozi qil" Bu holga xalq, barcha ulug' kishilar hayratda qoldi. Valiylarning Allohga yaqinligi ham shunda. Hilm va burdbog'liq – bu toifada har kimki shiddat bilan, muomala qilsa-da ular lutf bilan o'tkazadilar. Qarshilik va ziddiyatlarda uzr so'raydilar. Hilm bobida valiylardan, Hazrat Mavlono Muhammad Tabogoniyni ulug'lab namuna qilib ko'rsatadi. Valoyat sohiblarining yana bir sifati–sabr. Navoiy sabrni Allohdan kelgan har qanday baloga tahammul qilib matonat bilan qarshi olishlik deb ifoda etadi va Shayx Sahl bin Tustariy haqida hikoya keltiradi. Zamondoshlaridan kimki og'ir qiyinchiliklarga duch kelsa undan duo qilishini iltimos qilishadi. Uning duosidan tashvish va g'amlari bartaraf bo'ladi. Ammo o'zi yillar davomida bavirusir kasalligi bilan og'risa ham o'zi uchun duo so'ramaydi. Haqiqatga yaqin bo'lmagan so'z yuzaga chiqmagay. Bu axloq sifatida eng maqbul sifatlardan biri. Agar bu sifat haqida gapirsak yana bir kitob bo'ladi deya valoyat ahlidagi rostgo'ylik, sidqni ham eng muhim sifat qilib ko'rsatadi. Azim riyozati haqida shariat uni tayin qilmagani, bu toifada har xil nav paydo bo'lib, uning sharhini ham bo'yi bor. Bulardin biri niyat bilan bir oyda bir iftor qilmoq, bir oyda bir vuzu'bilan namoz o'qimoq. Tariqat



sultoni shayx Abu said Abulxayr q.s kim avvalgi sulukda har kecha bir chuqurdan bosh tuban o'zlarini osar ekan va tongacha zikr aytarmishlar va muborak ko'zlaridan qon chiqar ekan. Hazrat shayx ul- islom Hirotda butun yozni giyoh bilan kun kechirib o'tkazar ekan. Shayx ul- islom Shayx Ahmad Jom o'n sakkiz yil Yazd tog'iga chiqib xalqdan yuz o'girib tog'da ibodat qiladi. Elni ko'rmay ibodat qiladi va unda taom ham ma'lum bo'lmaydi. Har odatkim, bu ulug'larga Alloh taolo bu riyozat qarshisida o'z fazli karami in'om nasib qilibdurki, olam sultoni yuzlarini ularning ostonalariga surtubdurlar va ro'zg'orlarining sharafini ko'rubdurlar, ulardan bir nazar yalinib so'rab va ularning ostonalarida muborak nazarlarini ba'zilarga solibdirlar, ba'zilarga esa yo'q.

Xulosa: “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keltirilgan hikoyatlarda valiylarga xos sifatlar o'ziga xos tarzda yoritiladi. Valiylarning sifatlarini ifodalovchi har bir nazariy tushunchalar ularning turmush tarzida, faoliyatida ro'y beradigan holatlar bilan dalillanadi. Valiylarning bu sifatlarga ega bo'lishliklari qay darajada mushkul bo'lsa, shunchalik darajada “Eng yaqin do'st”lari tomonidan mukofotlanadilar, e'zozlanadilar. Ammo, valiylar bu holat bilan maqtanmaydilar va birovga oshkor qilmaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik.-T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi 2012.-B. 93-95
2. Farididdun A. Tazkirat ul- avliyo.-T.: 2023. B-79-80-89.
3. Navoiy A. Nasoyim ul- muhabbat.-T.: 2018. B-12.